SHASHMAQOMNING IKKINCHI GURUH SHO‘BALARI VA ULARNING IJROCHILIK-PEDAGOGIK TALQINI

Mashrabjon Ermatov – *O‘zbekiston xalq hofizi, professor*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,
Musiqali teatr san’ati kafedrasi

ВТОРАЯ ГРУППА ШУБ ШАШМАКОМА И ИХ ИСПОЛНИТЕЛЬСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Машрабжон Эрматов – *народный хафиз Узбекистана, профессор*
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана,
кафедра искусства музыкального театра

THE SECOND GROUP OF SHU'BAS OF SHASHMAQOM AND THEIR PERFORMANCE-BASED PEDAGOGICAL INTERPRETATION

Mashrabjon Ermatov – *People’s Hafiz of Uzbekistan, Professor*
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture,
Department of Musical Theatre Arts

Tayanch so‘zlar: Shashmaqom, ikkinchi guruh sho‘balari, Buxoro Iroqi, Rok, Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh, Saraxbori Oromijon, namud, doira usuli, hofizlik, maqom ijrochiligi, maqom ta’limi.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz musiqa merosining yirik qatlamlaridan biri bo‘lgan Shashmaqomning ikkinchi guruh sho‘balari, xususan, Buxoro Iroqi, Rok, Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh va Saraxbori Oromijon kabi asarlarning musiqiy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu sho‘balarning asosiy Shashmaqom turkumidagi o‘rni, kuy yo‘li, doira usullari, namudlardan foydalanish, she’riy vazn va ijro talqinidagi o‘ziga xosliklari yoritiladi. Shuningdek, Shashmaqom an’analarini avloddan-avlodga yetkazishda hofizlik maktabining o‘rni hamda ustoz hofizlarning ijrochilik va pedagogik faoliyati nuqtayi nazaridan mazkur merosning ta’limiy-estetik ahamiyati ochib beriladi.

Ключевые слова: Шашмаком, вторая группа шуъбе, Бухоро Ироқи, Рок, Каландарий Дугох, Самандарий Дугох, Сарахбори Оромижон, намуд, доира-усуль, хафизское исполнительство, исполнение макома.

Резюме. В данной статье анализируются музыкально-стилистические особенности второй группы шуъбе Шашмакома — одного из крупных пластов узбекского классического музыкального наследия, в частности таких произведений, как Бухоро Ироқи, Рок, Каландарий Дугох, Самандарий Дугох и Сарахбори Оромижон. Освещаются место и значение данных шуъбе в основном цикле Шашмакома, особенности мелодического развития, доира-усулей, использования намудов, поэтического метра, а также своеобразие исполнительских интерпретаций. Кроме того, раскрывается роль школы хафизов в передаче традиций Шашмакома из поколения в поколение, а также образовательное и эстетическое значение данного наследия с точки зрения исполнительской и педагогической деятельности хафизов.

Keywords: Shashmaqom, second group of shobas, Bukhara Iroqi, Rok, Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh, Saraxbori Oromijon, namud, doira rhythmic pattern, hafiz tradition, maqom performance, maqom education.

Summary. This article analyzes the musical and stylistic features of the second group of shobas (sections) of Shashmaqom, one of the major layers of Uzbek classical musical heritage, with particular attention to such works as Bukhara Iroqi, Rok, Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh, and Saraxbori Oromijon. The article examines the position of these shobas within the main Shashmaqom cycle, their melodic structures, doira rhythmic patterns, the use of namud, poetic meters, and distinctive features of their performance interpretations. It also highlights the role of the hafiz (traditional singer) school in transmitting the traditions of Shashmaqom from generation to generation, as well as the educational and aesthetic significance of this heritage from the perspective of the performing and pedagogical activities of Uzbekistan’s People’s Hafiz and Professor Mashrabjon Ermatov.

Kirish. O‘zbek mumtoz musiqa san’ati tarixida Shashmaqom alohida badiiy-estetik va ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab musiqiy tizim sifatida shakllangan. Uning tarkibidagi har bir maqom nafaqat muayyan lad-parda tuzilmasi, balki o‘ziga xos kuy yo‘llari, usullar, shakliy tuzilish, she’riy matn va ijro an’analari bilan tavsiflanadi.

Shashmaqomning mukammal ijrochilik tizimi asrlar davomida hofizlar, sozandalar va ustoz-shogird maktablari orqali takomillashib kelgan. Shu ma’noda maqom ijrochiligi faqat musiqiy asarni ijro etish mahorati emas, balki tarixiy xotira, badiiy tafakkur va milliy musiqiy dunyoqarashni avlodlarga yetkazish vositasidir.

Maqomshunoslik adabiyotlarida Shashmaqomning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro munosabati va ijro xususiyatlari keng tadqiq etilgan. Xususan, maqomlarning nazariy asoslarini yoritishda Fitratning ilmiy qarashlari, Yunus Rajabiy tomonidan amalga oshirilgan notaga olish va nashr ishlari, shuningdek, keyingi maqomshunos olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. [1.22] Bugungi kunda ushbu an’analarni zamonaviy ijrochilik va pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston xalq hofizi, professor Mashrabjon Ermatovning ko‘p yillik ijrochilik va ustozlik faoliyati ana shu jarayonning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shashmaqomning ikkinchi guruh sho‘balari

Shashmaqomning ashula bo‘limidagi sho‘balar ichki tuzilishi va ijro xarakteriga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratiladi. Ikkinchi guruh sho‘balarining o‘ziga xos jihati shundaki, ularning ayrimlari Savt va Mo‘g‘ulcha turkumlariga bevosita mansub bo‘lmay, mustaqil musiqiy-ijodiy xususiyatlarni namoyon etadi.

Buxoro Irog’i



Bunday sho‘balardan biri — **Buxoro Iroqi**. U Saraxbori Iroq bilan musiqiy-genetik jihatdan bog‘liq bo‘lsa-da, uning tovushqatori Buzruk maqomining parda tizimiga moslashtirilgan. Natijada Buxoro Iroqi Buzruk maqomi tarkibida qaror topgan. [2.87] Bu holat Shashmaqom tizimining ichki dialektik tabiatini ko‘rsatadi: bir tomondan, sho‘ba o‘zining tarixiy-musiqiy ildizlarini saqlab qoladi, ikkinchi tomondan esa yangi maqom pardalari va ijro usullariga moslashadi. Buxoro Iroqining tarkibida Talqinchai Iroqi Buxoro, Chapandozi Iroqi Buxoro, Soqinomai Iroqi Buxoro va Ufori Iroqi Buxoro kabi shahobchalar mavjud. Ularning har biri bir turkum doirasida alohida ritmik, melodik va poetik xususiyatlarni namoyon etadi.

Buxoro Irog’i Talqinchasi





Talqinchai Iroqi Buxoro talqincha usuliga asoslangan shahobcha bo‘lib, Buxoro Iroqining mazkur usuldagi ko‘rinishini ifodalaydi. Talqincha usulining mavjudligi uning ritmik tuzilishini belgilabgina qolmay, kuy jumlalarining shakllanishi va she’riy matnning musiqaga joylashtirilishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Maqom ijrochiligida bunday asarlarni o‘zlashtirish xonandadan faqat ovoz imkoniyatini emas, balki usulni ichdan his qilish, kuy rivojini anglash va matn-musiqa mutanosibligini saqlashni talab etadi.

Chapandozi Savti Navo



Talqinchai Savti Navo



“Chapandoz” atamasi “chap andoz”, ya’ni teskari yoki aks andoza ma’nolari bilan izohlanadi.


Musiqiy nuqtayi nazardan Chapandozi Iroqi Buxoro talqin usuliga qarama-qarshi xarakterdagi ritmik va melodik harakatni namoyon etadi. Uning tovushqatori va ayrim namudlari muayyan darajada Talqinchai Iroqi bilan mushtarak bo‘lsada, kuy yo‘li va usulning yo‘nalishida qarama-qarshilik seziladi. Bu xususiyat maqom turkumining ichki kontrast tamoyilini kuchaytiradi. Maqomshunoslik nuqtayi nazaridan bunday qarama-qarshiliklar turkumning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Chunki turkumdagi asarlar bir-birini aynan takrorlamasdan, aksincha, o‘zaro kontrast orqali umumiy musiqiy mantiqni yuzaga keltiradi.

Buxoro Irog'i Soqinomasi




Soqinomai Iroqi Buxoroning muhim jihatlaridan biri uning she'riy vazn va kuy yo'li bilan uzviy bog'liqligidir. Maqom amaliyotida "Soqinoma" atamasi muayyan kuy yo'liga nisbatan ham, shu kuyga mos she'riy vaznga nisbatan ham qo'llanadi. Keyingi ijrochilik amaliyotida turli vaznlardagi g'azallarning Soqinoma kuylariga moslashtirilishi maqom musiqasining melodik imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan Soqinomai Iroqi Buxoro ijrochidan she'riy matnning aruz vaznini musiqiy fraza bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu esa maqom hofizligining faqat vokal emas, balki adabiy-estetik tayyorgarlikni ham taqozo etishini ko'rsatadi. [3.123] Ufori Iroqi Buxoro Buxoro Iroqining ufor xarakteridagi ko'rinishi bo'lib, unda ufori doira usuli asosiy ritmik omil sifatida namoyon bo'ladi. Uforlarning Shashmaqomdagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Ular ko'pincha xonanda va raqqosa ijrosi bilan bog'liq holda namoyon bo'lib, maqom turkumining harakatchan, jo'shqin va sahnaviy qirralarini kuchaytiradi. Shu sababli uforlarni ayrim tadqiqotlarda Shashmaqomning "o'yin" xarakteridagi qismi sifatida talqin qilish hollari uchraydi.

Rok



Ikkinchi guruh sho‘balaridan yana biri — Rok. Ushbu sho‘ba Shashmaqom ijrochilik amaliyotida o‘ziga xos mavqega ega. “Rok” nomining Hindiston musiqa madaniyatidagi “rag” yoki “raga” tushunchasi bilan fonetik va semantik jihatdan yaqinligi maqomshunoslikda qiziqarli masalalardan biridir. Biroq bundan Rok sho‘basining musiqiy tuzilishi bevosita hind musiqasidan olingan degan xulosaga kelish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar uzoq davrlarga borib taqaladi. Savdo, ilm-fan, adabiyot va san’at sohalaridagi munosabatlar natijasida ikki mintaqa musiqiy tafakkurida ham o‘zaro ta’sirlar yuzaga kelgan. Shuning uchun Rok atamasining shakllanishini mintaqalararo madaniy aloqalar kontekstida o‘rganish maqsadga muvofiq. Biroq Rokning parda tuzilishi va doira usulini Shashmaqomning umumiy tizimi doirasida tahlil qilish uning o‘zbek-tojik maqom an’anasidagi mustaqil xususiyatlarini ham ko‘rsatadi.

Mustahzodi Rok



Mustaxzodi Rok talqin usulida ijro etiladigan murakkab shahobchalardan biridir. Uning she’riy o‘lchovi ham talqin xarakteridagi asarlar bilan bog‘liq.

Mazkur asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri — uning ichki musiqiy rivojida jumlalarning turlicha joylashtirilishi va namudlardan foydalanishning o‘ziga xosligidir. Bunday murakkablik uning ijrosini boshqa ommabop sho‘balarga nisbatan qiyinlashtiradi. Shuning uchun Mustaxzodi Rok kabi asarlarni o‘zlashtirishda ustoz-shogird an’anasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki notaviy matn asarning umumiy tuzilishini ifodalashi mumkin bo‘lsa-da, maqom ijrosidagi mayda bezaklar, ohang talaffuzi, nafas olish, ovoz yuritish va usulni his qilish kabi jihatlar ko‘pincha bevosita ustozdan shogirdga o‘tadi.

Qashqarchai Rok nom jihatidan Qashqarcha usulini eslatsa-da, uning amaliy ijrosida Soqinoma usulining mavjudligi diqqatga sazovordir. Bu holat Shashmaqomdagi nom va musiqiy mazmunning har doim ham to‘liq bir-biriga mos kelavermasligini ko‘rsatadi. Mazkur hodisani maqomlarning tarixiy shakllanish jarayoni bilan bog‘lash mumkin. Maqomlar uzoq vaqt davomida og‘zaki-an’anaviy tarzda yashab kelgani sababli ayrim asarlarning nomi, usuli va ijro variantlari hududiy hamda ustozlik maktablariga qarab o‘zgarib borgan.

Soqinomai Rok esa o‘zining jonli, harakatchan va raqsbop xarakteri bilan ajralib turadi. Uning ansambl ijrosiga qulayligi ushbu asarning ijrochilik amaliyotida ommalashishiga xizmat qilgan.

Ufori Rok ham mazkur turkumning o‘ziga xos yakunlovchi qismlaridan bo‘lib, undagi melodik sakrashlar va namudlardan foydalanish xonandadan keng diapazon va mukammal texnik tayyorgarlikni talab qiladi.

Qalandari Dugoh



Qalandari Dugoh Shashmaqomning mazmunan va ijro jihatidan murakkab sho‘balaridan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishi “Qalandariy” yo‘llari va zikr an’analari bilan bog‘lanadi. Qalandari Dugohning talqin usulidagi ritmik tuzilishi ham uning zikr harakatlari bilan aloqadorligini ko‘rsatuvchi jihatlardan biridir. Bunday xususiyat asarning nafaqat musiqiy, balki ma’naviy-estetik mazmunini ham kuchaytiradi. Asarning vokal diapazoni keng bo‘lgani sababli uni ijro etish uchun xonandadan katta ovoz imkoniyati talab qilinadi. Shu sababli Qalandari Dugohning ijrochilik amaliyotida nisbatan kam uchrashi tabiiy holat sifatida qaralishi mumkin.

Samandari Dugoh esa talqincha usulida ijro etilishi bilan Qalandari Dugohga o‘ziga xos kontrast hosil qiladi. Uning kuy yo‘li va namudlarida Qalandari Dugoh bilan aloqadorlik sezilsa-da, ritmik xarakterdagi farq asarning mustaqil badiiy qiyofasini yaratadi.

Samandari Dugoh



Bu ikki asarni qiyosiy o‘rganish Shashmaqom turkumlarida “savol-javob”, “aks ettirish” va “kontrast” tamoyillarining qanday ishlashini anglashga yordam beradi.

Saraxbori Oromijon



Saraxbori Oromijonning musiqiy qiyofasi Dugoh pardalaridagi zamzamalardan boshlanishi bilan ajralib turadi. Asar nomining o‘zida ham uning poetik-musiqiy mazmuni mujassam. Saraxbor janrining Shashmaqomdagi o‘rni alohida. U ko‘pincha ashula bo‘limining boshlovchi va muhim qismlaridan biri sifatida qaraladi. Saraxborlarning melodik ko‘lami, shakliy tuzilishi va ijro imkoniyatlari xonandadan yuqori darajadagi maqom tayyorgarligini talab qiladi.

Saraxbori Oromijonning zarbul qadim usuliga mansubligi ham uning ritmik tabiatini belgilovchi muhim jihatdir.

Ustoz-shogird an’analari va maqom ijrochilik maktabi

Shashmaqomni asrlar davomida saqlab kelgan asosiy mexanizmlardan biri — ustoz-shogird an’anasidir. Maqom ijrochiligi og‘zaki-an’anaviy xarakterga ega bo‘lganligi sababli asarning musiqiy matni bilan bir qatorda uni ijro etishning uslubiy me’yorlari ham avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Maqom xonandaligi ijrochilik faoliyatini ham ana shu an’ananing zamonaviy bosqichdagi davomiyligi nuqtayi nazaridan baholash mumkin. Ustozlarimiz faoliyatlarida maqom asarlarining badiiy mazmunini yetkazish, mumtoz ashula ijrochiligining vokal imkoniyatlarini namoyon qilish va yosh ijrochilarni milliy musiqiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari muhim o‘rin tutadi. Ustozlar faoliyatining ilmiy-pedagogik ahamiyati shundaki, maqom ijrochiligi faqat tayyor kuylarni takrorlash emas, balki asarning ichki mazmunini anglash, she’riy matnni to‘g‘ri talqin qilish, usul va lad munosabatlarini his etish hamda ijro jarayonida badiiy yaxlitlikni saqlashni talab qiladigan murakkab san’at turi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Buxoro Iroqi, Rok, Qalandari Dugoh, Samandari Dugoh kabi murakkab sho‘balarni yosh ijrochilarga o‘rgatishda ustozning shaxsiy ijro tajribasi katta ahamiyatga ega.

Chunki bunday asarlarda notaga tushirilgan musiqiy matndan tashqari, an’anaviy ijrochilik maktabiga xos ko‘plab jihatlar — avjga chiqish, namudlarni qo‘llash, ohang bezaklari, nafas taqsimoti, so‘z va kuy munosabati hamda usulni ichki his etish mavjud.

Maqom ta’limining tarbiyaviy ahamiyati

Maqom san’ati yosh avlodning estetik didini shakllantirish bilan birga, uning ma’naviy dunyosini boyituvchi muhim vositalardan biridir. Shashmaqom repertuaridagi g‘azal va ruboiylar mumtoz adabiyotning yuksak namunalariga asoslanganligi sababli maqom ta’limi musiqa va adabiyotning uzviy birligini ta’minlaydi. Shu ma’noda maqomni o‘rganish jarayonida o‘quvchi yoki talaba bir vaqtning o‘zida:

- *musiqiy eshitish qobiliyatini;*
- *ritmik tafakkurini;*
- *vokal ijrochilik mahoratini;*
- *mumtoz she’riyatni anglash qobiliyatini;*
- *estetik didini;*
- *milliy-madaniy tafakkurini rivojlantiradi.*

Maqom ta’limining yana bir muhim jihati — sabr, izchillik va muntazam mashqni talab qilishidir. [4] Murakkab sho‘balarni o‘zlashtirish jarayonida ijrochi asarning tashqi shaklini emas, uning ichki mantiqini anglashga intiladi. Bu esa musiqiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Shashmaqomning ikkinchi guruh sho‘balari o‘zining murakkab musiqiy tuzilishi, usul va kuy yo‘llarining rang-barangligi, she’riy matn bilan uzviy bog‘liqligi hamda o‘ziga xos ijrochilik talablari bilan maqom merosining alohida qatlamini tashkil etadi. Buxoro Iroqi va uning Talqinchai Iroqi Buxoro, Chapandozi Iroqi Buxoro, Soqinomai Iroqi Buxoro hamda Ufori Iroqi Buxoro kabi shahobchalari turkum ichidagi musiqiy kontrast va rivojlanish tamoyillarini namoyon etsa, Rok turkumi o‘zining noodatiy usul va melodik tuzilishi bilan ajralib turadi. Qalandari Dugoh va Samandari Dugoh esa zikr an’analari bilan bog‘liq musiqiy qatlamning Shashmaqom tarkibida saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Saraxbori Oromijon esa Saraxbor janrining o‘ziga xos badiiy imkoniyatlarini namoyon etadi. Mazkur asarlarning ijrosi va avlodlarga yetkazilishida ustoz-shogird an’anasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu jihatdan ustozlarimizning ijrochilik va pedagogik faoliyati milliy maqom merosini zamonaviy sharoitda davom ettirish, yosh avlodga yetkazish va uning badiiy-estetik imkoniyatlarini ochib berish jarayonida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabiy Yu. Shashmaqom I-tom. Toshkent 1980 y.
2. Bo’riyeva K. Yakka xonandalik. Toshkent 2023 y.
3. Matyakubov Sh. Ansambl uslubiyoti Toshkent 2024 y.